



TOHIR MALIK ASARLARIDA PSIXOLOGIK TASVIR VOSITALARINING QO'LLANISHI

Tolibjonova Maftuna

Namdu 1-kurs magistiranti

Tel: +998930594580

Ma'lum bir davr va uning vakillari haqida qiziqarli va muhim voqealarni to'xtovsiz so'zlash mumkin, ammo voqealarning shunchaki bayoni badiiy asar darajasiga ko'tarilishi uchun ijodkor turli badiiy tasvir vositalaridan foydalangan xolda voqealar bayonini san'at asari darajasiga olib chiqadi. Asardagi badiiy obraz xarakterini chuqur va to'liq ochib berishda muallif badiiy tasvir vositalari bilan qatorda psixologik tasvir vositalaridan ham foydalandi. Asarda muallif tomonidan qahramon ichki dunyosiga chuqur kirib borish, obraz ruhiy olamining bat afsil tavsifi, qalb kechinmalarining tasviri – "badiiy psixologizm" deb yuritiladi. Psixologizm atamasi psixologik tahlil, psixologik tasvir, psixologik obraz, psixologik roman, psixologik hikoya va psixologiya kabi atamalar bilan bog'liq. A. B. Yesin ta'biri bilan aytganda, badiiy psixologizm – bu asar personajining hayolot olami, fikrlari, mulohazalarining o'ziga xos badiiy vositalardan foydalangan xolda juda to'liq, bat afsil va chuqur ifodalab berish.

Rus adabiyotshunoslik ilmida ruhiyat mavzusida birinchilardan bo'lib tadqiqot olib borgan N.G. Chernishevskiy psixologik tahlil xilma-xil bo'lishi mumkin deydi va bir muallif xarakter qirralariri ochib berishga urinsa, boshqasi – xarakter shakllanishiga jamiyat va turmush ta'sirini ko'rsatib beradi; uchinchisi – xattiharakatlarning histuyg'ular bilan aloqadorligini; to'rtinchisi – ehtiroslar tahlili tasvirlaydi. Rus adabiyotshunosligiga psixologizm tushunchasi qariyb ikki yuz yil avval kirib ketgan bo'lsa, bu muammoni ilm dunyosiga olimlar A.A. Potebney, D.N. Ovsyaniko-Kulikovskiy olib kirgan, adabiyotshunoslikda M.M. Baxtin, J.I.Ya. Ginzburg, A.B. Yesin, D.S. Lixachev, psixologiya fanida esa L.S. Vigotskiy, I.V. Straxoviy, G.G. Granik, O.V. Soboleva tomonidan chuqur tadqiq qilingan. Adabiyotda psixologizmnning rivojlanish tarixini tavsiflab, adabiyotshunos olim L.Ya. Ginzburg "mavjud adabiy janrlarda psixologik yangiliklar endigina nish urayotgan bir vaqtda, badiiy adabiyotning yondosh janrlari bo'lmish – rasoil, kundaliklar, memuarlar va avtobiografik janrlarda psixologizm allakachon o'rnashib bo'lgan edi" deb yozadi. O'z o'rnida psixologizm atamasi turlicha ta'riflarga ega. Rus adabiyotshunolsik terminlari qomusida "Psixologizm (adabiyotda) – qahramonlar ichki olami: ularning o'y-xayollari, orzu-umidlari, iztiroblarining chuqur va bat afsil tasviri".

L.Ya. Ginzburg esa "... ko'ngil olami ziddiyatlarining chuqur tadqiqi" deya ta'riflasa, A.B. Yesin psixologizmni keng va tor ma'nolari mavjud ekanligiga to'xtalib



o'tadi – keng ma'noda inson hayotini tarannum etuvchi va xarakterini tasvirlab beruvchi barcha san'at turlarining xususiyati tushunilsa, tor ma'noda esa inson ichki olamidagi hayot va jarayonlarning tasviri deyiladi. O'zbek adabiyotshunos olimlari tomonidan tuzilgan adabiyotshunoslik terminlari lug'atida badiiy psixologizm atamasiga "badiiy asarda to'laqonli inson obrazini yaratishning muhim vositalaridan biri; personaj ruhiyatining ohib berilishi, xatti-harakatlari va gap-so'zlarining psixologik jihatdan asoslanishi, shu maqsadlarga xizmat qiluvchi usul va vositalarning jamlanmasi" deya ta'rif berilgan. O'zbek adabiyotshunosligida badiiy psixologizm masalasi ilmiy maydonga o'tgan asrning o'rtalarida kirib kelib, Milliy adabiyotshunosligimizda bu atama sintez bo'lgan holda o'zining ruhiyat (psixologizm), ruhiyat tasviri (psixologik tasvir), ruhiyat talqini (psixologik talqin), ruhiyat tahlili (psixologik tahlili)- kabi nomlariga ega bo'ldi.

"Ruhiyat" atamasining "psixologizm" (yun. psyche – qalb; logos – o'rganmoq) termini bilan sinonim sifatida qo'llanilishini joiz deyish mumkin, sababi 5 jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati" da ruhga – "jon", ruhiyatga esa – "jonning holati", deya izoh berilgan. Bu izoh albatta adabiy termin uchun nomukammal bo'lsada, ammo ma'no jihatdan ikkila termin ham bir mazmunni beradi. O'zbek adabiyotshunos olimlari XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab badiiy psixologizm va psixologik tahlil masalasiga bag'ishlangan izlanishlar olib bordilar. Jumladan, A.Rasulovning "Xarakter molodeji v sovremenix uzbekskix sovetskix povestyx" , N.Shodievning "Abdulla Qahhorning asarlarida psixologik tahlil mahorati" , N.Yuldashevning "Problemi psixologicheskogo analiza v uzbekskoy proze (Vnutrenniy monolog v romanax A.Kadiri, Aybeka, A.Kaxxara, A.Yakubova) nomzodliy dissertasiyalari, X.Umurovning "O'zbek romanlarida ruhiy tahlil muammosi" doktorlik dissertasiysi , A.Xolmurodovning "Odil Yoqubov romanlarida psixologizm" , P.Kenjaevaning "Hozirgi o'zbek hikoyalarida qahramon ruhiyatini tasvirlash tamoyillari" nomzodlik dissertasiysi hamda monografiyasida , M.Boboxonovning "Hozirgi o'zbek qissachiligida badiiy psixologizm" nomzodlik dissertasiyasida, M.Sheralievning "Hozirgi o'zbek nasrida kinoya (ijtimoiypsixologik omillari, poetik tizimdagi o'rni)" , Yu.Eshmatovaning "Istiqlol davri o'zbek qissachiligida ayol ruhiyatining badiiy talqini , Sh.Botirovaning "Hozirgi o'zbek romanlarida badiiy psixologizm (Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat", "Isyon va itoat", "Sabo va Samandar" romanlari misolida) filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissersiyalarida badiiy psixologizm va psixologik tahlil masalalarini turli aspektlarini tadqiq etgan bo'lsalar, M.Kilichevaning "Ingliz va o'zbek adabiyotida psixologik holatlar talqinida adabiy ta'sir muammosi (yolg'izlik motivi misolida)" , N.Qobilovaning "Jek London va Abdulla Qahhor ijodida badiiy psixologizm" mavzusidagi filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissersiyalarida badiiy psixologizm va ruhiyat mavzularida qiyosiy

tadqiqot olib borganlar. Garchi, o'zbek adabiyotshunosligi ilmiy davralarida psixologizm hamda ruhiyat bilan bog'liq tushunchalar XX asrning o'rtalarida e'tirof etila boshlagan bo'lsada, shaxs ruhiyati talqini va tahlili Sharq mumtoz adabiyoti vakillari ijodida ham yetakchi o'rinni egallagan.

Tohir Malik 70-yillarning boshlarida o'zbek adabiyoti maydoniga kirib keldi va o'z ijodini bolalar uchun hikoya yozishdan boshladi. Keyingi yozgan asarlarida esa fantastika katta o'rinni egallaydi. Jahon fantastik yozuvchilari asarlarini qunt bilan o'qib o'rganadi. O'zbek adabiyotida bu janrda ijod qilgan Hojiakbar Shayxov, Qudrat Do'stmuhammedov, Rustam Obidov kabi fantastik yozuvchilar asarlari bilan qiziqib tanishib chiqadi. Tohir Malikning "Chorrahada qolgan odamlar" asari talabalik yillarida yozildi. U vaqtida fantiastik asarlar deyarli yo'q edi. Faqat Hojiakbar Shayxovning bolalar uchun yozgan asarlarida fantastika elementlari uchrab turardi. Tohir Malik fantastikaga milliylikni olib kirdi. U ijodga doir mashqlarini davom ettirar ekan, tog'asi Mirzakalon Ismoiyliyning "O'zing bilmagan narsani yozma", "Boshqalar yurgan yo'ldan yurma, o'z yo'lingni top" degan o'gitlariga doimo amal qilib keldi. Shu tufayli yozuvchi o'zbek adabiyotida kam e'tibor berilgan fantastika janriga qo'l urdi va bir qator asarlari bilan kitobxonlar e'tiborini qozondi. Keyinchalik u "Lenin uchquni" ro'znomasida bo'lim boshlig'i bo'lib faoliyat ko'rsatadi. So'ngra Respublika radiotelevideniye qo'mitasida, "Guliston" tahririyatlarida ishladi. "Sharq yulduzi" oynomasida mas'ul kotib, "Yoshlik" oynomasida bosh muharrir hamda O'zbekiston Yozuvchilari uyushmasi kotibi bo'lib ham xizmat qiladi. O'zbek adabiyotida Tohir Malik o'zining "Falak", "Somon yo'li elchilari", "Tiriklik suvi", "Zaharli g'ubor" ("Vasvasa" nomi bilan qayta ishlangan), "Chorrahada qolgan odamlar" ("Devona" nomi bilan qayta ishlangan) va boshqa fantastik, "Charxpalak", "Qaldirg'och" ("Savohil" nomi bilan qayta ishlangan), "Bir ko'cha, bir kecha", "So'nggi o'q", "Shaytanat", "Ov", "Murdalar gapirmaydilar", "Iblis devori", "Talvasa", "Mehmon tuyg'ular", "Jinoyatning uzun yo'li", "Odamiylik mulki", "Eng kichik jinoyat", "Tilla kalamush" singari detektiv va ma'rifiy asarlari bilan tanilgan va kitobxonlarning sevimli adibiga aylangan ijodkordir. Mohir hikoyanavis, qissanavis va romannavis hamdir. Tohir Malik 2000 -yilda "O'zbekiston xalq yozuvchisi" degan yuksak unvonga sazovor bo'lgan. Yozuvchining "So'nggi o'q" qissasi asosida 1994-yili telefilm suratga olingan. Tohir Malik birinchi asari 1971- yilda "Hikmat afandining o'limi" nomi bilan chop etilgan fantastik qissasi bo'ldi. So'ngra "Zaharli gubor" (1978) ilmiy-fantastik asari "Somon yo'li elchilari" (1079), "Chorrahada qolgan odamlar" (1985), "Qaldirg'och" (1987), "Bir ko'cha, bir kecha" (1988), "Alvido, bolalik" (1989), "So'nggi o'q" (1990) kabi o'nlab hikoya va qissalar to'plamlari chon etildi. U yaratgan nasriy asarlar o'zga nosirlardan o'ziga xos uslubi bilan ajralib turadi. Shu orqali ham hayot, odamlar va jamiyat haqida ancha keng mushohada yuritadi.

Shu bilan birga, "Qaldirg'och" kabi epik asarlar ham yaratgan. Mazkur qissada Abdulla Avloniy hayoti va faoliyati, tarixi, taqdiri misolida 20-yillar o'zbek ziyolilari sinfining shakllanishi haqida babs yuritadi. Shu orqali xalqimiz madaniy-ilmiy dunyoqarashi, kurashnni umumlashtirib beradi. Tohir Malik mohir hikoyanavis, qissanavisgina emas, jamoatchi. jurnalist va tarjimon sifatida ham faol xizmat qiladi. Uning bolgar adabiyotidan qilgan tarjimalari, Emil Amit, Axier Hakimov, Suhrob Muhamedov kabi adiblar yaratgan bir qator hikoya, qissalarini o'zbek tiliga tarjimasi keng o'quvchiga taqdim etilgan."Gulxan" jurnalida chop etiladi. 1963- yilda Tohir Malik Toshkent Davlat univeritetining kechki jurnalistika bo'limiga o'qishga kirib, kunduzi qurilishda duradgor, g'isht teruvchi bo'lib ishlay boshlaydi. U ijodga doir mashqlarni davom ettirar ekan, ustoz-tog'aning ikki o'giti - "O'zing yaxshi bilmagan narsani yozma", "Boshqalar yurgan yo'ldan yurma, o'z yo'lingni top"ga hamisha amal kildi. Bolalarga atab yozilgan hikoyalari bilan badiiy adabiyot sirlarini o'rgangan Tohir Malik keyinchalik o'zbek adabiyotida kam e'tibor berilgan fantastika janriga qo'l urdi va bir qator asarlari bilan kitobxonlar e'tiborini qozondi. Uning talabalik yillari yozilgan "Hikmat afandining o'limi" asari o'zbek adabiyotining fantastika yo'nalishida yaratilgan birinchi qissa hisoblanadi. Yozuvchining bir qator asarlari rus va boshqa tillarga tarjima qilindi. "So'nggi o'q" asari asosida yetti qismli, "Shaytanat" asari asosida yigirma qismli badiiy filmlar suratga olinib, namoyish etildi. Tohir Malik so'nggi yillarda romannavis sifatida Uning "Shaytanat" sarguzasht-detektiv romani o'zining ma'naviy-axloqiy muammolari bilan talabchan kitobxon va adabiy jamoatchilik e'tiborini qozondi. Shuningdek, muallif "Yov" (1995) nomli qissa ham yaratgan. Bu mavzu keyinchalik "So'nggi o'q" (1990), "Ov" (1997) qissalarida davom etdi. "So'nggi o'q" asosida yetti qismli telefilm yaratildi. Uning ma'naviyat masalalariga, axloqiy qadriyatlarga bag'ishlangan "Bir ko'cha, bir kecha" (1988), "Iblis devori" (2006), "Eng kichik jinoyat" (2007) asarlari ham kitobxonlarga manzur bo'ldi. "Iblis devori" asosida badiiy film suratga olindi. Adib insonning ma'naviy-ruhiy olamini tadqiq etishga ko'p e'tibor qaratdi. Buning samarasi o'laroq "Jinoyatning uzun yo'li" (2001), "Ayovsiz ilon" (2009), "Aql va Oqil" (2010), "Kelinlar daftariga" (2010), "Tilingni asra", "Mehmon tuyg'ular" ma'rifiy asarlari hamda uch kitobdan iborat "Odamiylik mulki" (2012) asari dunyoga keldi. Tohir Malikning yana "Alvido bolalik" (1989), 5 kitobdan iborat "Shaytanat" (1994,1995,1997,2001,2011), "Murdalar gapirmaydi" (1994), "Yomonlikdan yiroq bo'ling" (2001), "Talvasa" (2007), "Tilla kalamush" (2007), "Voy, onajonim" (2009), "Sohilsiz dengiz", "Padarkush" (2011), "Samum" (1-2 kitob, 2012–2013), "Charxpalak", "Halovat", "Shaytanatning jin ko'chalar", "Nomus", "Kuyov bola, sizga aytar so'zim bor" (2012), 12 jildli "Tanlangan asarlar", "Munojot" (2013), "Umidlar dashti", "Umidimiz yulduzlariga" (2014), "Po'rtanali ummonda suzar hayot qayig'i (1-2 kitob, 2015) kabi roman, qissa, hikoyalari, badealar kitoblari nashr etildi.

Adib tarjimon sifatida ham adabiyotshunosligimizda o‘z o‘rniga ega “Tashnalik” (bulg‘or hikoyalari, 1980), E. Amitning “Kapalak” (1981), A. Hakimovning “Oqsoq bo‘ri” (roman, 1981), F. Dostoyevskiyning “Ma’suma” (roman, 1985), V. Ikskulning “Nomus va ajal” (2010), “Nomus va qasos” (2011), K. Gotssining “Bug‘uga aylangan qirol” (pyesa, 2011), L. Tolstoyning “Sakrash” (1980) asarlarini o‘zbek tiliga o‘girdi. Ayni paytda adibning asarlari ham arab, rus, qirg‘iz, qozoq, uyg‘ur tillariga tarjima qilindi.

Adib qator kinossenariylar va radiopyesalar muallifi hamdir. Tohir Malik badiiy imkoniyati keng ijodkor. U faqat etuk nosirgina emas, dolzarb mavzulardagi badiiy maqolalar muallifi, mohir tarjimon sifatida ham tanilgan. Tohir Malikning bolgar va rus adabiyotida qilgan tarjimalari o‘zbek kitobxonlarining sevimli asariga aylanib qolgan. Shu o‘rinda adibning tarjimachilik faoliyatida erkin tarjimaga ko‘p e’tibor qaratilishini aytib o‘tish joiz. Tohir Malik tarjimasida Vladimir Ikskul (1860 yilda tug‘ilgan)ning “Nomus va ajal” qissasini 2007-yilda nashr ettirdi. Muhabbat – go’zal va nozik tuyg‘u. U qalblarga nur, surur beradi. Muhabbat nomus, hayo kabi fazilatlarni o‘ziga jo qilsagina sevishganlarga chinakam baxt bera oladi. Nomussiz muhabbat esa ishq ahlini ajalga giriftor etadi. Kavkazliklar hayotidan hikoya qiluvchi bu muhabbat fojiasi o‘zbek kitobxonlarini befarq qoldirmaydi.

Tohir Malik – qissanavis Yaratgan tomonidan ado etilgan iste’dod haddan tashqari kuzatuvchanlik, jahon adabiyotining eng sara namunalari bilan yaxshi tanishlik, jonli hayotga yaqinlik uni badiiy ijod maydoniga etaklab keldi. Tohir Malik ilk qadamlaridanoq adabiyotga o‘ziga xos ovoz, o‘zgacha tasvir usuli va alohida badiiy idrokka ega yozuvchi sifatida kirib keldi. Vaqt o‘tgani sayin adib ijodining ana shu jihatlari teranlik va tiniqlik kasb etib bordi. Tohir Malik, birinchi navbatda, qissanavis sifatida tan olingen yozuvchidir. Adibning qissalari o‘zbek qissachiligi taraqqiyotining o‘ziga xos davrini tashkil etadi deyish mumkin. Yozuvchi nasrning bu janrida inson tabiatiga xos turfa jihatlarni, ruhiy iztiroblaru tuyg‘ular tovlanishini butun murakkabligi bilan ko‘rsata oladi. Uning “Murdalar gapirmaydilar”, “Charxpalak”, “So’nggi o’q”, “Vasvasa”, “Alvido, bolalik!”, “Shaytanat” singari o’nlab badiiy barkamol asarlari qissa janri imkoniyatlari nechog’lik katta ekanligi amalda ko‘rsatdi. Mazkur qissalar adibning shaxs va uning tuyg‘ulari, taqdiri, qismati haqidagi o‘ylar, iztiroblari hamda mulohazalarining ko‘rinishidir. Bir qarashda, Tohir Malik qissalari soddagina: pardozlar, jimjimador badiiy bezaklardan xoli ko‘rinadi: Adibning “Savohil” va “So’nggi o’q” asarlari ma’lum ma’noda bir-birini to’ldiradi. Ularda oktyabr to’ntarishidan keyin xalqimiz boshiga tushgan fojiali qalamga olingen. “Turkiston Markaziy ijroqo’midagi majlislar Asadullani tabora qiy nab borardi, uni go’yo boshi berk ko’chaga haydayotgandek edi. Milliy uyg’onish, yurt istiqlolli orzusi mavhumlik pardasiga chulg’anardi. U jannat bog’larini chorasiz kishi holida o’zini ko‘rib, ruhi faryod cheka boshladi. “Qaysi nuqtada xatoga yo’l qo’ydik? Nahot

bo'layotgan gaplarning barchasi yolg'on, nahot biz aldovga uchgan nodonlarmiz?" - Asadulla shu savollarga javob izlardi. Ichki bir hayqiriq "Senlar aldandilarina, senlar tufayli xalq ham aldandi deb tursa, so'nib ulgurmagan umid cho'g'i" "Yana ozgina kutaylikchi" deb sabrga undardi. "Savohil" 1985-yilda yozilgan qissa bo'lib, lekin uning yozilishi ancha oldin boshlangan. Aslida Tohir Malik 1978-yilda atoqli siyosiy arbob, ma'rifatparvar, o'zbek teatrining asoschilaridan biri Abdulla Avloniy tavalludining 100 yilligi arafasida "Guliston" jurnalida ishlardi. O'sha vaqtdagi jurnalning bosh muharriri o'rın bosari Vahob Ro'zimatov unga bir surat ko'rsatib: "Afg'onistonga borgan birinchi elchilar delegatsiyasi. Bu odam Abdulla Avloniy degan taxmin bor. Shuni aniqlash kerak deydi. Tohir Malik Abdulla Avloniyning uylariga borib, Avloniyning qizi, o'g'li, shogirdi bilan uchrashadi. Shu masalaga oydinlik kiritish maqsadida Moskvaga ketishidan oldin tog'asi M. Ismoiliy bilan suhbatlashadi. O'sha suhbatda tog'asi o'zbek ziyyolilarining taqdirini yozish kerak degan fikr berib, yozuvchining yuragiga cho'g' soladi. Kutubxonalarlardagi, arxivdagi noyob hujjatlarni o'rganib chiqib bu qissani yozadi. Asar garchi Abdulla Avloniyga bag'ishlangan, unga shoirning hayotidagi ko'p voqealar kirgan bo'lsada, U Avloniy tarjimai holi sifatida berilmaydi. Yozuvchi Asadulla Mir'alam siymosida o'zbek ziyyolilarining eng yaxshi fazilatlarini jamlashga, shuningdek oktyabr to'ntarishidan keyingi adashishlarni bayon etishga harakat qiladi. Bolsheviklar o'zbek ziyyolilari va shariat peshvolari orasidagi ixtiloflardan ustalik bilan foydalanadilar. Ularni ayri-ayri sohillarga tashlab, so'ng birbirma-bir qirib yuborganlar. Tarixning bu mash'um sahifalari bugungi avlod uchun ibrat bo'lishi lozim.¹

Qissada XX asr boshidagi tuzum illatlari, o'zbek ziyyolilarining murakkab va fojiali taqdirlari haqqoniy tasvirlangan. Bolsheviklarning vahshiyona xatti harakatlari butun bir qishloq ahlini yosh, qarini, bola, ayni adirga haydab chiqib, "bosmachilarga qarshi handaq qaziysizlar" doya o'ldirib, o'zlari qazigan handaqlarga ko'mib ketishlari, o'z uylarini himoya etuvchilarni "bosmachi" deya ariqlarda suv o'rniga ularni qonini oqizganlar banyo etishga so'z ojiz. Yozuvchi odamlarning sho'rolarga qarshi qo'lga qurol olishlariga aynan shunday vahshiyliklar sabab bo'lgan deya xulosa beradi. Sovetlar tuzumi davridagi qamoq hayoti, jinoyatchilarining ruhiy olami bunyo etilgan "Murdalar gapirmaydilar" va "Ov" qissalarida nafsning kelajagi – zulm, zulmning kelajagi esa xorlik ekani haqida fikr yuritiladi. Bu oddiy hayot haqiqati orqali badan pokligi badangan, ruh pokligi ruhga hayot bag'ishlaydi degan g'oya ilgari suriladi. Qissaning "Yashash huquqi" deb nomlanuvchi birinchi bayoni "Aralangan daraxt" degan bir rivoyat bilan boshlanadi. "Emishki, bir o'rmonda bolta paydo bo'lib, daraxtlarga qirg'in keltiribdi. Yog'ochlar unga qarshi chora topolmay, keksa donishmand emandan maslahat so'rashibdi. "Bolta deganlaring nima o'zi? U nimadan

¹ Т. Малик. Танланган асарлар. З-жилд. Савоҳил. Қисса 8-том. "Шарқ" 2005 й. 10-6.



ishlangan? Deb so'rabdi eman. "Bolta- temirdan yasalgan bir matohdir" deb javob beribdilar. "O'zi-ku, temir ekan, dastasichi? Dastasi ham temirdanmi?" deb so'rabdi eman. "Yo'q, debdilar,-dastasi-yog'ochdan bo'lsa, unga chora yo'q", degan ekan eman. Xuddi mana shu eski rivoyatda aytib o'tilgan fikrlar asarning o'q tomiriga singdirilgan. Chunki hayotda ham "daraxtzorda" "bolta" paydo bo'lishi bilan unga dasta bo'lishga oshiquvchilar ko'payishi sir emas. Qissa qahramoni Tursunali ham xuddi mana shu "o'zidan chiqqan", "dastalar" sabab ildizi chopilib, uzoq sovuq o'lkalarda darsxt kesuvchilar safiga tushib qoladi. Uyqusiz sabablarini bu balolarga mubtalo bo'lish sabalarini ko'p o'ylaydi. Do'st libosidagi ilonlar boshini yanchishni diligə tugadi. Dunyo bamisoli birdaniga ko'karib tezda qurigan dalaga o'xshashini, ehtiyyotsizlik qilinsa bu manzara kishini aldab qo'yajagini, aldangan esa, bir kuni hayoti sarg'ayib so'la boshlagach, ma'yus va g'amgin bo'lajagini anglamaydi. Dunyoning o'xshashini, o'ylamay tashlangan har bir qadam botqoqqa – botirish mumkinligini fahm etmaydi. Tursunali shunday bandalardan biri. U marhamat so'rab Xudoga ko'p yolboradi. Ammo iymon kalimasi bilan yumshamagan dildan o'chgan bu yolborishlar qabul bo'larmikan? Insonlarni salomatga, saodatga erishtiruvchi yagona narsa iymondir. Odamzod har qanday yomonlikni faqat iymon bilan engishi mumkinligini anglab etmog'i mumkinmi? Dunyo to'plashga etgan aql bu haqiqatni tushunishga kelganda kamlik qiladi. Tursunali avvallari xudoni eslamas edi. Qo'lariga kishan tushishi bilan yodga oldi. Dam tavba, dam munojot qiladi. "Gunohim bo'lsa kechir" deydi. "Yo yaratgan egam, men gunohkor bandangman, bilib-bilmay qilgan gunohlarimni kechir" demaydi. Birovlarning haqqini eganida bu dunyoning hisob-kitobli ekanini unutgan edi. «Nafs balolaridan qutqar» deb so'ramagan edi, "zindon azoblaridan qutqar" deb faryodlar qildi. Bandaning holi shu: go'yo u yoki bu ishning gunoh ekanini bilmagandak yuraveradi. Boshi devorga urilib, zarba tufayli ko'zlaridan uchqunlar sachragandagina Tangrini eslaydi. Xulosa qilib shuni aytish kerakki, asarda ham jismonan, ham aqlan, ham ruhan pokiza hayot kechirish g'oyasi ilgari surilgan. Shaxs ruhiyatni tasvirlash Tohir Malik ijodiga xos muhim belgi deyish mumkin. Sho'rolar davrida eng yaxshi adabiyot - muammolar adabiyoti edi: o'sha sharoitda biror dolzarb hayotiy masalani ko'tarib chiqish, badiiy tadqiq qilishga urinishning o'zi jasorat hisoblanar va adabiyot uchun ham ma'lum ahamiyatga ega edi. Mafkura iskanjasiga kommunistik estetika badiiy adabiyotdan odamga uning oddiy "vint-murvat" ekanligini eslatib turishni kishi bilmas tarzda talab qilardi. Garchi, o'sha paytda ham og'izda insonni tasvirlash asosiy maqsad deyilsada, amalda odamga emas, uning mehnatiga e'tibor qaratilardi. Insonga asosan ishchi kuchi deb qaralar va u shu nuqtadan turib tasvir etilar edi. Inson tomonidan amalga oshirilgan ulkan ishlarga madhiyalar aytilsada, uning shaxsiga, ko'ngliga e'tibor qilinmas edi. Har bir odamning olam ichra olam ekanini hisobga olish, uning ruhiyati va kechinmalarini tadqiq etish badiiy ijod uchun muhim sanalmas. T. Malik sermahsul



ijodi bilan adabiyotshunoslikdagi bu kabi talablarni inkor etdi va istiqlol g'oyalarini millatdoshlar tafakkuri hamda ruhiyatiga singdira oldi. Tohir Malik zamonasozlik bilan qalam surmaydigan adib. U kitobxonlar saviyasiga moslashishga emas, balki ularning didini ko'tarishga, o'quvchini davr nafasini ilg'aydigan darajaga etkazishga urinadi. Shu bois o'quvchisidan oldinroq yurishga harakat qiladi. Tohir Malik hayotni insoniy tuyg'ular tasviri orqali ifoda etadi. U odam ruhiyati tovlanishlarini chuqur va tiniq tasvirlashga ishqiboz. Yozuvchining qissalarida hamisha shaxs tasviri, uning katta-kichik dardlari, iztiroblari, intilishlari, o'y-xayollari mavjud. Uning qahramonlari shu jamiyat, shu hududda nafas olib, sizu bizning oramizda yashab kelayotgan, ezgu va buning aksi bo'lgan ishlardagi shaxs va kimsalardir. Ularning hatti-harakati, fikr va dunyo qarashi, atrofidagi kishilar bilan munosabatlari, ma'lum bir voqelikka aloqasi qahramonning qanday ko'rinish (ijobiy yoki salbiy) zohir qilishni belgilab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmedov S. Adabiyot darslarida epik janrlarni o'rganish. Toshkent. «O'qituvchi». 1996- y
2. Hoshimova M. Saidova R. «Zamonaviy dars turlari» Toshkent. 2005.
3. Haqqulov I. Kim nimaga tayanadi. Adabiy suhbatlar. Toshkent. «Zarqalam» 2006 -y.
4. Hamroyeva, Maftuna Rasulovna. "The ways of using integrative approach in primary school lessons." Фундаментальные и прикладные научные исследования: актуальные вопросы, достижения и инновации. 2021.
5. Hoshimova M. Tojiboev R. Abdurahmonova B. Umumta'lim maktablarida o'zbek adabiyotini innovasion metoda o'rgansh. T. 2006 y
6. Ishmuhamedov R. Innovation texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. 2004 y.
7. Karimov N. "XX asr adabiyoti manzaralari" Toshkent. "O'zbekiston" 2008 -y
8. Mirqosimova M. O'quvchilarda adabiyot tahlil masalasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. Toshkent. «Fan» 2006 y.
9. Mirqosimova M. Akademik lisey va kasb-hunar kollejlarida epik asarlarni o'rganish. Til va adabiyot ta'limi jurnali. 2003 y 2-son
10. Nayitmetov A. Adabiyot merosimiz ufqlari. T. «O'qituvchi» 1997-y.
11. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi. «Nasaf» 2000-y